

TOSHKENT HAQIQATI

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

@haqiqatonline_24 Haqiqat online haqiqatonline_

Ватан учун, миллат учун, халқ учун!

ISLOHOT VA ISTIQBOL

▼ “Toshkent haqiqati” minbari

Ma'lumki, har qanday davlatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti, avvalo, bilimli, ma'rifatlil va vatanparvar yoshlar tarbiyasiga bog'liq. Shu bois, dunyodagi barcha mamlakatlarda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Shu sababdan mamlakatimizda ta'lim infratuzilmasi-

ni yangilash, pedagog kadrlar malakasini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lami islohotlar qilinmoqda. Bu jarayon Toshkent viloyatida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

2



▼ **Тараддуд** Паркент қадимдан жаннамонанд боғларию, турли навдаги ширин-шакар узумлари билан машҳур. Ташкент вилоятининг шарқий қисмида, Чотқол тоғ этакларида жойлашганлиги учун бу ҳудудда иқлим континентал бўлиб, ёзлари қурғоқ ва иссиқ, қишлари совуқ бўлади. Бундай иқлим узум етиштириш учун жуда мос келади.

Мабодо, Паркент томонларга келмаган бўлсангиз, бу ҳудудда неча хил узум навлари етиштирилади, деб сўрашингиз табиий. Жавоб берувчи одам, тоифи, қора қанд, ҳасайни, ҳусайни, кишимиш, Ризамат ота, вино тайёрлаш учун махсус етиштирилаётган навлар... дейдию, кейин бармоқла-

ри етмай қолади. Яхшиси, бу туманининг мусоффо ҳаволиридан нафас олиб, бағрикенг одамлари билан яна бир бор гурунглашишни ният қилинг-да, йўлга тушинг. Яқинда бу ерда бўлиб ўтадиган анъанавий “Узум сайли” бу борада энг муносиб танловдир...

4



▼ Қарор ва ижро

СЕРҚУЁШ
ДИЁРИМИЗ
НЕЪМАТЛАРИ

жаҳон бозоридан жой эгаллашга тўла муносибдир



Президентимиз раислигида 30 июль кунини ўтказилган видеоселектор йиғилишида ишлаб чиқарилаётган озиқ-овқат, саноат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига харидор топиш, боғхона логистикасида учраётган муаммоларни бартараф этиш ва қулайлик яратиш масалалари кўриб чиқилиб, муҳим вазифалар белгиланди.

(Давоми 2-саҳифада) ►



Олмалиқ шахрининг ОКМК спорт мажмуасида “Янги Ўзбекистон олимпия чўққилари” спорт мусобақаларининг вилоят босқичи старт олди.

ОЛИМПИА ЧЎҚҚИЛАРИ САРИ



Очилиш маросимида Ўзбекистон Республикаси спорт вазири ўринбосари Шахрулло Маҳмудов, Миллий Олимпия қўмитаси раиси ўринбосари Шерзод Ташматов, Ташкент вилоят ҳокими Зойир Мирзаев ҳамда “Олмалиқ КМК” АЖ бошқаруви раиси Абдулла Хурсанов иштирок этиб, спортчи ёшларга самимий тилакларини йўлладилар.

(Давоми 4-саҳифада) ►

Хамкорлик



САМАРАЛИ УЧРАШУВЛАР,
АМАЛИЙ НАТИЖАЛАР

Ташкент вилояти ва Россия Федерацияси ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик муносабатлари изчиллик ва жадаллик касб этиб бормоқда. Бу жараён, хусусан, икки ҳудудда фаолият юритаётган ваколатхоналар сонининг ортиб бораётганида яққол намоён бўлмоқда.

Ташкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаев Россия Федерацияси Пенза вилоятининг Ташкент вилоятида янги ташкил этилган ваколатхонаси вакили Владимир Жуковни қабул қилди. Учрашувда мазкур ваколатхона фаолиятини самарали ташкил этиш орқали икки томонлама савдо-иқтисодий алоқалар, қишлоқ хўжалиги, ишлаб чиқариш, таълим ва металлургия саноати каби йўналишларда амалий натижаларга эришиш масалалари кўриб чиқилди.

Таъкидлаш жоизки, Пенза вилояти саноат, ишлаб чиқариш ва металлургия соҳалари жадал ривожланган ҳудудлардан бири ҳисобланади. Учрашувда айнан шу йўналишлар бўйича қатор қўшма лойиҳалар – жумладан, мебелчилик соҳасида ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш, темирйўллар ва стратегик аҳамиятга эга объектлар учун шлагбаумлар, шу-

нингдек, ёнилғи ва бошқа махсус сувоқликларни ташишга мўлжалланган сифимли идишлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш масалалари муҳокама қилинди. Шу билан бирга, Пенза вилоятига қишлоқ хўжалиги ва саноат маҳсулотлари экспортини янада кўпайтириш масалалари кўриб чиқилди.

Бундан ташқари, IT соҳасида малакали мутахассислар тайёрлаш йўналишида ҳам ўзаро ҳамкорлик истиқболлари белгиланди.

Учрашув якунида томонлар ваколатхона фаолиятини янада самарали ташкил этиш, шу асосда ўзаро ҳамкорликни фаоллаштириш ва аниқ ташаббусларни ишлаб чиқиш борасида келишиб олдилар.

Шунингдек, Владимир Жуков Ташкент вилояти делегациясини расмий ташриф билан Пенза вилоятига тақлиф этди.

Ташкент вилояти ҳокимлиги
Ахборот хизмати

Viloyat bo'ylab



VILOYATIMIZDA qurilish xodimlari kuni nishonlandi. Sana munosabati bilan muhandislar, ustayur me'morlar, loyihachi va pudratchi tashkilot vakillari bir dasturxon atrofida jam bo'lishdi. Tadbirida bir guruh soha vakillariga viloyat hokimining faxriy yorliq, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

NURAFSHON shahrining “Obod” mahallasida aholi murojaatlarini joyida o'rganish maqsadida sayyor qabul o'tkazildi. Unga shahar hokimi I.Kilichxanov hamda tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi. Shu kuni murojaatlarining aksariyatiga joyida yechim topildi. Muddat talab etuvchi masalalar bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

BEKOBOD shahar Kambag'alilni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tashabbusi bilan “Bo'sh ish o'rinlari” mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Unda 12 ta korxona va tashkilot 60 dan ortiq bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi. Yarmarkada 6 nafar fuqaro ishga joylashdi, 16 nafari kasbga o'qitishga yo'naltirildi. Ko'plab fuqarolarga huquqiy maslahatlar berildi.

BO'KA tumani hokimi B.Begmatov mas'ullar bilan birga “Yangi hayot” mahallasi hududida qurilayotgan ko'p qavatli uylarning holati bilan tanishdi. Jarayonda mutasaddilarga qurilish materiallari sifatini nazorat qilish bo'yicha vazifalar yuklatildi. Shuningdek, qurilishni jadallashtirish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish va ishchi kuchi ta'minotini kuchaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

ZANGIOTA tumanidagi 14-umumta'lim maktabida kasbiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchilariga sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, tadbir doirasida tikuvchilik va duradgorlik kasblari bo'yicha o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan yigit-qizlarga tegishli malaka sertifikatlari berildi.

OQQO'RG'ON tumanining “Tarix va o'lkashunoslik” muzeyiga Qozog'iston Respublikasining Oqtobe shahridan bir guruh vakillar kelishdi. Ular muzeyda yurtimiz va O'rta Osiyo mintaqasi davlatchiligidan tarixi bilan yaqindan tanishishdi. Mehmonlar uchun milliy cholg'ularda kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

СЕРҚУЁШ ДИЁРИМИЗ НЕЪМАТЛАРИ

Жаҳон бозоридан жой эгаллашга тўла муносибдир

Таҳлилларга кўра, Тошкент вилояти бўйича жорий йилнинг биринчи ярмида мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти 76,7 фоизга бажарилган. Хусусан, Президентимизнинг 2025 йил 8 апрелдаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг экспорт салоҳиятини ошириш ҳамда қайта ишлаш занжирини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори ижросига асосан етиштирилган, қайта ишланган, қадоқланган сабзавот, полиз ва мевалар саноат маҳсулотлари ҳажмларига қўшилмоқда. Натижада 15,8 миллион долларлик маҳсулотлар экспортга чиқарилган.

Жумладан, Чирчиқ шаҳрининг “Камалак” маҳалласи ҳудудида фаолият юритаётган “Kiriolu Agro Impek” корхонасида қўрилган ўрик қўқилари тайёрланмоқда. Туркия билан ҳамкорликда амалга оширилаётган ушбу лойиҳа қиймати 5 миллион долларни ташкил этиб, корхона тўлиқ ишга туширилиши билан 300 та иш ўрни яратилиши режалаштирилган.

Айтиш жоизки, соҳада экспорт қилувчи корхоналар сони 68 тани ташкил қилиб, шундан 16 тасида Европа стандартларига мос бўлган “Organic” ва “Global G.A.P.” сертификати мав-

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

жуд. Солиштириш учун 2023 йилда 5 та, 2024 йилда 9 та корхонада шундай сертификатлар мавжуд бўлган ва йил сайин бу борадаги имкониятлар ортмоқда.

— Амалга оширилаётган саёй-ҳаракатлар натижасида Европа, яқин ва узоқ Шарқ мамлакатлари ва АҚШга экспорт ҳажми 2,9 баробарга ортди, — дейди Тошкент вилояти ҳокимининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича биринчи ўринбосари Хуршид Қорабобоев. — Масалан, 2024 йилда ушбу давлатларга 8 та корхона томонидан 4,6 миллион долларлик 8 турдаги маҳсулотлар экспорт қилинди. Жорий йилнинг 6 ойида бу кўрсаткич 13,3 миллион долларга, маҳсулотлар тури эса 17 тага етди. Утган даврда соҳада АҚШ, Малайзия, Португалия ва Голландия давлатлари бозорлари ўзлаштирилди. Уларга Ўрта Чирчиқ, Бўка туманларидаги тадбиркорлар мева-сабзавот маҳсулотлари экспортини амалга оширди. Ҳозирги кунда жойлардаги музлаткичли омборхоналарда



жами 1 минг 50 тонна гилос, 2 минг тонна олма, 3,5 минг тонна олхури, ўрик ва қўрилган мевалар сақланмоқда.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, бу омборхоналарда йил якуни билан 45 минг тонна маҳсулотни сақлаш имкони яратилмоқда. Хусусан, пишиқчилик мавсумида 2 доллардан сотилиши кутилаётган узум маҳсулотларини музлаткичли ом-

борхоналарда сақлаш орқали 4 доллардан 7 долларгача экспорт қилиш имкониятлари мавжуд.

Муҳими, Тошкент вилоятида мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти асосан III ва IV чорақда пишиб етиладиган узум, дуккакли ва полиз маҳсулотлари ҳисобидан йил якунига қадар 242,7 миллион долларлик маҳсулот етиш кутилмоқда.

Абдулазиз МУСАЕВ

▼ Кадриятларимиз



ОБОД ВА ФАЙЗЛИ МАҲАЛЛА — ЮРТ КЎРКИ

Юртимизда муҳим саналар, байрамлар арафасида хайрия ҳашарлари ўтказиш эзгу анъанага айланган.

Зеро, ҳашар — халқимизнинг бетакрор қадрияти бўлиб, чор-атрофни обод, покиза бўлишига, одамларда яқдиллик, ўзгаларга кўмак қўлини узатиш, ҳамжиҳатлик, аҳиллик каби фазилатларнинг янада қучайишига хизмат қилади.

Бу йил ҳам мамлакатимиз Мустақиллигининг 34 йиллиги олдидан 22-23 август кунлари “Обод ва фойзли маҳалла — юрт кўрки” шиори остида умумхалқ хайрия ҳашари эълон қилинди. Ҳашарни уюшқоқлик билан ўтказишда қўйиладиган алоҳида эътибор қаратилиши белгиланди.

Жумладан, ҳашар тадбирларини юқори савияда ташкил этиш мақсадида ҳар

либ, дархат ва буталарнинг қуриган шоҳлари кесилади.

Шунингдек, умумхалқ ҳашари доирасида ҳар бир маҳаллада ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар қатламига ёрдам кўрсатишга қаратилган ишлар “кўчабай”, “хонадонбай” шакллантирилади. Унга “маҳалла еттилиги” аъзолари, кўча, уй бошилар бириктирилади.

Мазкур анъаналаримиз



бир маҳаллада амалга оширилаётган чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилди. Ҳашар кунлари маҳаллалар, аҳоли пунктлари, кўп қаватли тураржойлар ҳамда ҳовилилар атрофи, гузарлар, хиёбонлар, зиёратгоҳлар ҳамда болалар майдончалари тартибга келтирилади. Ижтимоий соҳа объектилари, корхона, ташкилот ва бошқа тадбиркорлик объектилари, қабристон, масжид ва муқаддас қадамжолар атрофлари ободонлаштирилади. Арик-зорурлар, томорқа ва йўлаклар тозаланиб, маийий чиқиндилар чиқариб ташланади, деҳқон ва буюм бозорлари ҳудудлари ҳамда уларнинг атрофлари тартибга келтири-

орқали ёшлар онгига ҳамжиҳатлик, ободлик ва яратувчанлик ғояларини чуқур сингдириб, ўз уйини, маҳалласини, иш жойини тоза, озода сақлаш, унинг обод бўлишига ўз ҳиссасини қўшиш каби тўйгулар шакллантирилади.

Энг улуғ, энг азиз байрамимиз арафасида ўтказилаётган бу хайрли тадбир ҳар бир юртдошимизнинг қалбида Ватанга бўлган муҳаббатни янада қучайтиради. Бир сўз билан айтганда, ҳашар — халқ кудратининг, юрт бирлигининг ва миллий қадриятларимиз бардавомлигининг ёрқин ифодасидир.

Ўз муҳбири

▼ Форум

Янгийўл шаҳридаги 5-сонли умумтаълим мактабида “Маҳоратли ўқитувчи — миллат таянчи” шиори остида тўртинчи “Устозлар миллий форуми”нинг вилоят босқичи ўтказилди.

Тадбирда Мактабгача ва мактаб таълими вазири ўринбосари Сардор Ражабов, вилоят ҳокими ўринбосари Отабек Султонбеков, вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси бошлиғи Шукур Бурхонов, фахрий устозлар ҳамда 490 нафар илгор, ташаббускор ва етакчи педагог ҳамда тарбиячилар иштирок этишди.

Маросимда йил давомида самарали меҳнат қилган бир гуруҳ ўқитувчи ва мураббийларга ташаккурнома ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

МАҲОРАТЛИ МУАЛЛИМ — МИЛЛАТ ТАЯНЧИ



Форумнинг асосий қисмида турли фан йўналишларида шўъба машғулотлари ташкил этилди. Унда Президент мактаблари, ихтисослаштирилган таълим муассасалари ҳамда умумтаълим мактабларининг илгор устозлари томонидан дарс жараёнига татбиқ қилинаётган илгор педагогик методикалар, замонавий ёндашувлар ва таълимдаги

ислохотлар юзасидан амалий машғулотлар ўтказилди.

Энг муҳими, форумда олинган билим ва тажрибалар босқичма-босқич иш жараёнига тарғиб этилиши режалаштирилди. Форум 19-20 август кунлари туман (шаҳар)лар, 25-29 август кунлари эса барча таълим муассасаларида давом этади.

Ўз муҳбири

▼ Ишлаб чиқариш

ЭНГ ЯХШИСИ — БОЛАЖОНЛАР УЧУН

Хабарингиз бор, сўнгги вақтларда ижтимоий тармоқларда ёш болалар орасида турли тагликлар ва гигиеник воситалардан фойдаланиш натижасида аллергия, тери тошмалари билан боғлиқ касалликлар кузатилаётгани ҳақида хабарлар тез-тез учрамоқда. Мутахассислар ҳам бундай маҳсулотларни танлашда эътиборли бўлишни таъкидлашмоқда.

Ақсарият истеъмолчилар сифатли маҳсулот деганда хориж брендларини кўз олдига келтиришда. Аммо бугун ҳам лакализацияда хорижикундан асос қилинмайдиган маҳсулотлар ишлаб чиқарилмоқда.

Юқори Чирчиқ туманида жойлашган “Sof Gigiyenik” МЧЖда табиий хом ашёдан экологик соф болалар тагликлари тайёрланади.

—Дарҳақиқат, маҳсулотимизнинг устунлиги сифати ва хавфсизлигида, — дейди корхона иш бошқарувчиси Жавлон Нуров. — Асосий хом ашё — пахта матоси Америка Қўшма Штатларидан келтирилади. Маълумки, АҚШ болалар тагликлари ишлаб чиқаришда дунёда етакчи саналади. У ерда тайёрланган маҳсулот юздан ортқ мамлакатларга экспорт қилинади.



Биз ҳам айнан шу хом ашёдан фойдаланамиз. Шу сабабли маҳсулотимизга

ички бозорда ҳам, хорижда ҳам талаб юқори. Корхонада юздан ортқ аҳолининг бандлиги таъминланган.

Таъкидлаш лозимки, корхонада ишлаб чиқариш жараёни тўлиқ автоматлаштирилган, цехлар замонавий техникалар билан жиҳозланган. Корхонада йилга ўртача 20 миллион дон болалар таглиги тайёрланади. Маҳсулот ички бозордан ташқари Қозғистон, Қирғизис-

Айни paytda viloyatimizda 877 ta umumta'lim, 1 ta Prezident, 13 ta ixtisoslashtirilgan, 23 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari mavjud bo'lib, ularda 525 ming nafardan ortiq o'quvchilar tahsil olmoqda. Ularning sifatlari ta'lim olishini ta'minlash maqsadida maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagog-kadrlar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada maktablarda malakali kadrlar soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, bugun ta'lim maskanlarida faoliyatini davom ettirayotgan 37 ming 491 nafar o'qituvchining 22 ming 755 nafari (60 foiz) turli toifaga ega bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2 ming 134 nafarga ortgan. Shuningdek, xalqaro xorijiy tillar sertifikatlarini qo'lga kiritgan pedagoglar 1 ming 905 nafarni, rus tili sertifikatini olganlar esa 1 ming 446 nafarga yetdi.

Ta'kidlash lozimki, endilikda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishi juda yuqori. Shuni hisobga olgan holda ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun qulay sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, viloyatdagi 43 ta umumta'lim maktabida ikkinchi xorijiy til o'qitish yo'lga qo'yilgan. Buning uchun Nurafshon, Olmaliq, Yangiyo'l shaharlari, Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, Oqqo'rg'on tumanlariga "Zo'r klass" loyihasi doirasida Rossiya Federatsiyasidan 8 nafar pedagog jalb etildi. Shuningdek, viloyatdan 10 nafar pedagog va 50 nafar o'quvchi Rossiyaga malaka oshirish uchun yuborildi.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonada yoshlarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularni hayotga tayyorlash, kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh kadr qilib yetishtirish vazifasi ham ko'ndalang turibdi. Shu maqsadda, viloyatda yigit-qizlarni o'z qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyatdagi 22 ta tayanch maktabda mahalliy hokimlik bilan hamkorlikda 94 ta kasb va axborot texnologiyalari yo'naltirishlari joriy etildi. Bu to'garaklarda o'quvchilar aniq bir kasb haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda. Yil oxiriga qadar yana 50 ta maktabda ushbu loyiha joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu sa'y-harakatlar yoshlar kelgusida o'z yo'lini topib, o'zi qiziqqan kasb bilan shug'ullanib, hayotda qoqilmasligiga yordam beradi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi ax-

TOSHKENT HAQIQATI

ISLOHOT VA ISTIQBOL

Ayni paytda viloyatimizda 877 ta umumta'lim, 1 ta Prezident, 13 ta ixtisoslashtirilgan, 23 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari mavjud bo'lib, ularda 525 ming nafardan ortiq o'quvchilar tahsil olmoqda. Ularning sifatlari ta'lim olishini ta'minlash maqsadida maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagog-kadrlar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada maktablarda malakali kadrlar soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, bugun ta'lim maskanlarida faoliyatini davom ettirayotgan 37 ming 491 nafar o'qituvchining 22 ming 755 nafari (60 foiz) turli toifaga ega bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2 ming 134 nafarga ortgan. Shuningdek, xalqaro xorijiy tillar sertifikatlarini qo'lga kiritgan pedagoglar 1 ming 905 nafarni, rus tili sertifikatini olganlar esa 1 ming 446 nafarga yetdi.

Ta'kidlash lozimki, endilikda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishi juda yuqori. Shuni hisobga olgan holda ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun qulay sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, viloyatdagi 43 ta umumta'lim maktabida ikkinchi xorijiy til o'qitish yo'lga qo'yilgan. Buning uchun Nurafshon, Olmaliq, Yangiyo'l shaharlari, Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, Oqqo'rg'on tumanlariga "Zo'r klass" loyihasi doirasida Rossiya Federatsiyasidan 8 nafar pedagog jalb etildi. Shuningdek, viloyatdan 10 nafar pedagog va 50 nafar o'quvchi Rossiyaga malaka oshirish uchun yuborildi.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonada yoshlarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularni hayotga tayyorlash, kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh kadr qilib yetishtirish vazifasi ham ko'ndalang turibdi. Shu maqsadda, viloyatda yigit-qizlarni o'z qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyatdagi 22 ta tayanch maktabda mahalliy hokimlik bilan hamkorlikda 94 ta kasb va axborot texnologiyalari yo'naltirishlari joriy etildi. Bu to'garaklarda o'quvchilar aniq bir kasb haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda. Yil oxiriga qadar yana 50 ta maktabda ushbu loyiha joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu sa'y-harakatlar yoshlar kelgusida o'z yo'lini topib, o'zi qiziqqan kasb bilan shug'ullanib, hayotda qoqilmasligiga yordam beradi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi ax-

Ta'kidlash lozimki, hozirgi ax-

Ayni paytda viloyatda 2 ming 345 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud. Ulardan 574 tasi davlat, 21 tasi tashkilotga qarashli, 138 tasi xususiy, 47 tasi davlat-xususiy sherikchilik asosida, 1 ming 565 tasi esa oilaviy bog'chalaridir. Ularga 3—7 yoshli 171 ming 341 nafar bola (74,9 foiz) qamrab olingan. Yil yakuniga qadar 7 ta davlat-xususiy sherikchiligi va 94 ta oilaviy bog'chalar tashkil etish orqali yana 5 ming 630 nafar bolani maktabgacha ta'limga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, "To'loq tajribasi" asosida viloyatning 4 ta tumanida "ilk rivojlanish markazlari" tashkil etilib, maktabgacha ta'limdan chetda qolayotgan 2 mingga yaqin bolani qamrab olish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Bo'stonliq va Chinoz tumanlaridagi 4 ta mahallada 3 smenali 12 ta mobil guruh, 80 ta bir yillik tayyorlov, 4 ta qisqa muddatli guruh tashkil etiladi. Shu bilan birga, pedagogika kollejlari negizida 4 ta davlat bog'chasi faoliyati yo'lga qo'yilib, 750 nafar bola qamrab olinadi.

Muxtasar aytganda, yildan yilga kengayib borayotgan islohotlar kelajak avlodni bilimli, kasbga ega, yurtiga sadoqatli, vatanparvar bo'lib voyaga yetishiga qaratilgan. Zero, ta'lim sohasida har bir qaror, loyiha va tashabbus uzoqni ko'zlab, kelajakni o'ylab amalga oshirilmoqda. Bizning burchimiz — bu vazifalarni bekamu ko'st bajarishdir.

Shukur BURXONOV, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i

ПЎЛАТДЕК ТОБЛАНГАН ҚАҲРАМОН

Ёшлигида бўш қолди дегунча копток ортидан югуриб, ота-онасидан гап эшитмаган бола санокли бўлса керак. Қахрамон ҳам тўпсевар болалардан эди. У даврларда смартфоннинг "с" харфи ҳам йўқ, ҳозиргидек ҳар маҳаллада қуриб қўйилган кичик майдончалар қаёқда дейсиз? Шу боис Қахрамон ва унинг тенгдошлари асосий вақтларини кўчада тўп тенгиш билан ўтказишар эди.

▼ Эътироф



Бу воқеа ҳам шундай кунларнинг бирида содир бўлди.

Уйинда ютжазётган рақиб команданинг ёши катта ўсмирларидан бири Қахрамоннинг синфдошини туртиб йикитди. Қоида бўйича "судья"лик қилаётган мактаб қоровули уйинни тўхтатиши керак эди. Аммо, кап-катта амаки ундай қилмади. Шунда ноҳақликка чидай олмаган Қахрамон синфдошини Ҳимоя қилиб, биринчи марта ўзидан катта ўсмирлар билан муштлашди...

Қахрамон уйига кўкарган қовогини қафти билан яшириб, хафа бўлиб қайтди. "Ҳали кўрасанлар, — деганди ўшанда кўлларини мушт қилиб, — мен Тошкентга бориб, Руфат Рискиевдан боксини ўрганиб олай, ҳаммадан зўр бўламан!"

Орадан йиллар ўтди. Қахрамон Сатторовнинг болалиқдаги орзулари ушалди. Аммо унга ўтган асрнинг 70-йилларида бокс бўйича жаҳон чемпиони бўлган Руфат Рискиевга эмас, Ўзбек жанг санъати федерацияси раиси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган спорт устози, академик Пўлат Усмоновга шогирд бўлиш насиб этди.

Қахрамон ўрта мактабни тамомлагач, меҳнат фаолиятини Ангрен шаҳридаги 9-қўмбир қонида оддий ишчилардан бошлади. Орада Тўйтепа шаҳрига қатнаб юриб, Пўлат Усмоновнинг назарига тушди. Устозидан Ўзбек жанг санъатидан сабоқ олиш билан бирга, ўзи ҳам ангреник болаларга шу спорт турини ўргата бошлади. Дастлаб шаҳардаги 2-ўрта мактабда, кейинчалик коллежларда спорт тўғралоқлари ташкил этди. Бир неча йилдири, Ангрен шаҳар 1-сон политехникумида жисмоний тарбия ва спорт раҳбари вазифасида ишлаб келяпти.

Яқинда мазкур масканда Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 34 йиллигига бағишлаб, "Ватан учун, миллат учун, халқ учун!" шиори остида ҳамда "Долзарб 90 кун" лойиҳаси доирасида Ўзбек жанг санъати бўйича клублараро вилоят чемпионати ўтказилди.

Мусобақада юртимизнинг турли ҳудудларидан келган спортчилар ўз маҳоратларини намойиш этдилар. Қизғин ва муросасиз ўтган беллашувларнинг голиблари ташаккурнома ва эсдалик совғалари билан мукофотландилар.

Шунингдек, спорт клуби раҳбари Қахрамон Сатторовнинг меҳнатлари Ўзбек жанг санъати федерацияси раиси Пўлат Усмонов ҳамда жамоатчилик томонидан эътироф этилди.

Айниқса, учрашув сўнгига сўзга чиққан спорт ҳомийси Холхўжа Юнусовнинг сўзларини иштирокчилар олқишлар билан кутиб олишди.

— Бугун ёшларимизнинг спорт уйинларини кўриб, кўнглим завқ-шавққа тўлди ва ният қилдим, — деди Холхўжа ака. — Орамизда Пўлатдек тобланган Қахрамонлар бор экан, юртимиз спортчилари Ўзбекистонимиз номини жаҳонга машҳур қилверадилар!

Тўхтамурод ҲАСАНБОВ,
"Тошкент ҳақиқати"
муҳбири

Ой бошида Трамп қутилмаганда Ҳиндистонни нишонга олди. Деҳлини Москва билан яқин алоқалари учун кескин танқид қилди, янги иқтисодий санкциялар ҳақида гапирди. Аслида бу Кремлга босимнинг янги кўринишидир.

Тахлилчилар Трамппнинг Ҳиндистонга нисбатан риторик ўзгаришини ҳайратланарли, деб тушунадилар. Аввалроқ Оқ уй соҳиби Деҳли ва Москва "ўзининг ўлик иқтисодини биргаликда йўқ қилишлари мумкин", деган эди. Қўшма Штатлар узоқ вақтдан бери тобора ривожланаётган Ҳиндистонни Хитойнинг қудрати олдига мувозанатчи, деб қарарди.

АҚШ етакчиси Ҳиндистон рус нефтини сотиб олишни тўхтатди, деб баёнот бериши ортидан ҳукуматдаги манбалар уни рад этиб чиқди: санкция таҳдидларига қарамай хом ашё сотиб олиш давом этмоқда.

Қуруқ қар ортидан Трамп амалга ўтди: 1 августдан ҳинд маҳсулотларига 25 фоизлиқ солиқ солди.

АҚШ билан ҳамкорлиқни чуқурлаштиришни истамгани учун Деҳли жазоланди.



НИШОНДА — ҲИНДИСТОН

Янада тўғрироғи, бу амаллар БРИКСни парчалаб ташлашга қаратилган, деган қарашлар ҳам бор.

Тарихдан маълумки, Ҳиндистон ташқи диктатларга қаршилиқ кўрсатиб келган: Неру давридаги Фабиан социализмдан тортиб, Модии ҳукумати томонидан илгари сурилган ҳиндутва мафкурасига қадар. У умумий суверенитетнинг устуворлиги, ички бозорни Ҳимоя қилиш ва ўз ресурсларига эътибор қаратишга асосланади.

Аҳолисининг 40 фоиздан ортиги қишлоқ хўжалигида банд, яъни Америка экспорти учун махсус қишлоқ хўжалиги секторини очиб

мушламо мумкин эмас. Рус нефтидан воз кечиш фойдасиз бўлгани каби ҳиндлар ёқилгининг бир қисмини Ғарбга тайёр нефть маҳсулоти кўринишида қайта сотмоқда.

Ҳиндистон Хитойнинг "Бир камар, бир йўл"ига муқобил равишда ўзининг глобал — "Зираворлар йўли"дан то ЕИ, Қўрғаз, Африка ва Лотин Америкаси мамлакатлари билан фаол савдога қадар ўз режасига эга.

2024 йилда АҚШ билан савдо баланси ижобий бўлган, Деҳли импортга нисбатан икки баравар кўп экспорт қилган. Экспортда асосан фармацевтика, қимматбаҳо тошлар ва телекоммуникация ускуналари бор. Қўлланилажак янги солиқлар сезиларли эмас.

АҚШ Хитой мисолида бўлгани каби иқтисодий санкция ва тарифлари энди универсал босим ҳисобланмайдми. Дунё тобора стратегик плюрализм томон фаоллашмоқда, агрессив амаллар аса муқобил глобал кўтбнинг шаклланишига олиб келади.

▼ Назорат

НОҚОНУНИЙ ИШ — КЕЛТИРАР ТАШВИШ

Энергоресурслардан оқилона ва қонуний фойдаланиш нафақат иқтисодий барқарорлик, балки хавфсизлиқни таъминлашда ҳам муҳим аҳамиятга эга. Табиий газ — юқори қийматли энергия манбаи бўлиб, ундан ноқонуний фойдаланиш умумхалқ бойлигига зиён етказиш баробарида одамлар ҳаёти ва мулки учун катта таҳдид солиши мумкин.

"Ўзэнергоинспекция" ва мутасадди ташкилотлар ушбу йўналишда назоратни кучайтириш билан бирга, аҳоли ва тадбиркорлар ўртасида ҳуқуқий маданиятни оширишга ҳам алоҳида эътибор қаратишмоқда. Қонунобузарлик аниқланган ҳар бир ҳолатда зарур чоралар қўрилади ва қонун доирасида жавобгарлик белгиланади.

Хусусан, инспекциянинг Тошкент шаҳар ҳудудий бошқармаси томонидан тегишли идоралар — газ таъминоти корхонаси ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамкорлигида пойтахтимиздаги бир қатор жойларда табиий газдан фойдаланиш ҳолати бўйича кенг қамровли назорат тадбирлари ўтказилди.

Жорий йил июль ойида Мирзо Улугбек тумани "Авайхон" маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган "Avayxon obod group" масъулияти чекланган жамияти (қўл қаватли уй-жойларга хизмат кўрсатиш билан шугулланувчи ташкилот) да ўтказилган текширув натижалари ана шундай ҳуқуқбузарлик ҳолатини очиклади.

Маълум бўлишича, ушбу жамият табиий газдан фойдаланиш қоидаларини қўпоп равишда бузган. Яъни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 31 майдаги 319-сон қарори билан тасдиқланган "Табиий газдан фойдаланиш қоидалари"нинг 12-боби, 129 ва 134-бандларига зид равишда, лойиҳа-техник ҳужжатлар ва шартнома расмийлаштирмасдан ҳамда газ ҳисоблагич ўрнатмасдан газ тармоғига тўғридан-тўғри улашиб, сув иситиш қозони орқали газдан фойдаланиб келган.

Қондабузарлик юзасидан расмий далолатнома тузилиб, қайта ҳисоб-китоблар натижасида етказилган зарар ҳажми 47 минг 347 куб. метр газ ёки 426 млн. 124,8 минг сўм экани аниқланди.

Шайхонтоҳур тумани "Гулбозор" маҳалла фуқаролар йиғинида жойлашган, жисмоний шахс Муаттар Касимовага тегишли новвойхонада



ўтказилган текширув ҳам ноқонуний фаолиятни фош этди.

Текширувда мазкур новвойхонада ўрнатилган газ ҳисоблагич ўзбошимчалик билан ёчилиб, унинг ўрнига резина шланг туташтирилган ҳолда 1 донга йирик тандир ишлатиб келинаётгани маълум бўлди. Бу ҳолат ҳам амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга зид ҳисобланади.

Ушбу ҳолат юзасидан тизилган далолатномага асосан, 315 млн. 648 минг сўмлик зарар қайд этилди.

Ж. ОЛПОСОВ,
"Ўзэнергоинспекция"
Тошкент шаҳар бошқармаси
бош мутахассиси

▼ Ҳикматли дунё

34 йил яшади ва 1993 йилда ўпка саратонидан вафот этди. Аммо бир саратондан бошқасигача у дунёга машҳур ижодкор бўлиб яшашга улгурди.

Ижод, семимли касб шундай — даволайди, юксалтиради. Ишга оёғингизни судраб келсангиз, истамай ишласангиз, ҳафсаласиз шугуллансангиз — касб сизни емиради, ейди! Ҳар кимсага кўнглига

ҲЕЧ ҚАЧОН КЕЧ ЭМАС

ёққан касб билан шугулланиш ва ундан манфаат кўриш бахти насиб этсин.

Қолаверса, ҳар биримизнинг ичимизда ҳали ўзинимиз билмаган бир истеъдод мудраб ётган бўлиши мумкин.

Машҳур француз рассоми Поль Гоген 40 ёшдан кейин расмчилик билан шугуллана бошлаганини биласиз. Аслида ёш жуда шартли нарса, агар ўзингизда куч ва иқтидор сезсангиз, фаолият турини ўзгартириш учун 40-50-60 ёш ҳам кеч эмас.

Муҳими, умрингиз баракали бўлсин!
К.САЛОМОВА тайёрлади

Исроил Ғазо сектори устидан назоратни ўрнатиш юзасидан янги қарор қабул қилди.

Халқаро ҳамжамият билан баробар бу қарор Исроил жамиятини ҳам хавотирга солди. Нетаньяху ХАМАС қўлида қолаётган эллик кишини озод этишга қаратилган амалиёт, дея ўзини оувтмоқчи бўлиб, кулгили ҳолга тушди.

ИСРОИЛ ТАЛВАСАДА

пертлар. — Шу кунларда 80 минг яҳудий аскар реабилитация марказида, уларнинг ўрнини босадиган ҳарбийлар эса йўқ...

Диндор яҳудийлар — харедимлар аскарликдан бўйин товлайди, кўпчилик қақирқидан қочмоқда. 170 минг кишилик армиянинг аҳоли шу.

Шу пайтгача ХАМАСни "синдирилмади", бу ёғига ҳам қурби етмайди, аммо қурбонлар сони ошади, ички беқарорлик кучаяди, демоқда тахлилчилар. 40 минг жангчи билан ХАМАС қаршилиқ кўрсатиши давом эттириверади.

Экспертлар қайд этганидек, Исроил ХАМАСга қарши дастлабки икки ойда ғалабага эришган эди, бу ёғига қатлиом ва тинч аҳолига қарши ҳарбий жиноятлар билан шугулланиб келмоқда.

Исроил Фаластин тупроқлари остида анча ракета тўплаб қўйилганини эътироф этмоқда.

Исроил "катта оғаси" кўмағида операцияни кенгайтириш билан овора экан, Ғарбнинг илгор мамлакатлари — Буюк Британия, Канада, Франция, шунингдек, Австралия Фаластин давлатини расмий эътироф этиш режасини тезлаштирмоқда...

Аброр ХОН,
халқаро шарҳловчи

▼ Огоҳлик

ДИНИЙ ТАЪЛИМНИ КИМДАН ЎРГАНЯПСИЗ?

Юртимизда фуқароларнинг виждон эркинлиги, диний эътиқоди кафолатланган бўлиб, бу борадаги ҳуқуқлар Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қатор қонун ҳужжатлари орқали Ҳимоя қилинади.

Бироқ сўнги пайтларда айрим фуқаролар томонидан юртдошларимизга яширин диний таълим бериб, ёт гоёлар таъсири билан лиммо-лим тўлган ўз талқинларига таяниб, бунинг йўли муқаддас динимизга, муборак Қуръони Каримга хизмат, манфаатли илм ниқобига ўраб жамоатчиликка тақдим этаётган замонадошларимиз, афсуски, учраб турибди.

Бундан бир неч кун илгари интернетда бир хабар тарқалди. Унда таъкидланишича, Наманган вилоятида халқаро террор ташкилотининг 16 нафар тарафдори қўлга олинган. Улар диний ниқоб қилиб, диний таълимот баҳонаси билан ўз таъсир доирасига тушганларни жиҳодга тайёрлаган. Шукрки, тинчликка раҳна солиши мумкин бўлган хавфнинг олди вақтида олинди. Бироқ, "сценарий" бутунлай бошқача бўлиши ҳам мумкин эди...

Бугун ДХХ ходимлари томонидан ваколатли органлар билан ҳамкорликда республика бўйлаб ана шундай ноқонуний диний таълим бераётганларга қарши назорат тадбирлари кучайтирилгани бежиз эмас. Чунки бузуқ тафаккур тарзи билан яшаб, тинчлик ва барқарорликка таҳдид солаётганлар орамизда ва улар билан асло мурося қилиб бўлмайдми!

Хусусан, мана шундай тезкор тадбирлар давомида Тошкент вилоятида ноқонуний фаолият юритаётган қўштирноқ ичида айтганда, "диний таълим масканлари" фош этилди.

Жумладан, 2005 йилда туғилган, Тошкент вилоятида яшовчи Ю.Л. исмли фуқаро телеграм мессенжерига гуруҳ ташкил этиб, унда жами 11 нафар иштирокчига "Қуръон" ва "Тажвид" китоблари орқали диний таълим бериб келган. Ушбу ҳолат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан аниқланиб, процессуал тартибда расмийлаштирилди.

Шунингдек, 1988 йилда туғилган, Тошкент вилоятида истикомат қилувчи И.М. исмли аёл телеграмда иккита диний гуруҳ очиб, ўз таъсир доирасига тушган 12 нафар фуқарога "Қуръон" ва "Муаллими Соний" китоблари асосида диний таълим берган.

Бундан ташқари, Ангрен шаҳрида яшовчи, 2000 йилда туғилган фуқаро П.М. телеграм платформасида диний йўналишда канал очиб, 38 нафар фуқарога бепул "Қуръон" ва "Тажвид" китоблари орқали диний таълим бериб келгани маълум бўлган.

Ҳозирда уларга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 241-моддаси (қонунга хилоф равишда диний таълим бериш, фуқаролар томонидан ваколатли давлат органларидан тегишли рухсатномаларсиз диний таълим бериш) билан жиноят иши қўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Мамлакатимизда диний эътиқод эркинлиги ҳуқуқи кафолатланган бўлса-да, диний таълим бериш, диний ҳаракатларни ташкил қилиш қақатгина махсус аккредитациядан ўтган муассасалар орқали, тегишли талаблар асосида амалга оширилиши белгиланган бўлиб ва бу ақл билан қараганда жуда мақбул йўлдир!

Зотан, диний радикализм ва мутаассибликнинг инсоният бошига келтирган турли бало ва кулфатларига тарих гувоҳ. Бу қабоҳат ва жаҳолатнинг фожиали оқибатлари бизнинг юртимизни ҳам четлаб ўтган эмас.

С. САДРИЙ

Қирқ яшар мактаб ўқитувчиси саратон хасталигига чалинди. Шифокорлар узоғи 1 йил умрингиз қолди, дейишди...

Ўқитувчини бир савол қийнади: ўлганимдан кейин хотиним ва қизларим қандай кун кўради?



У инглиз тили ва адабиётидан дарс берад, бошқа тирикчилик йўқ эди.Узоқ ўйлаб бестселлер даражасидаги роман ёзиб, муаллифлик ҳуқуқини оиласига

мерос қолдиришдан бошқа жўяли режа ҳаёлига келмади. Аввал умрида ҳеч асар ёзмаган бўлса ҳам, ҳозирги аҳоли ва қолган камгина вақти нуктаи назаридан бошқа бирор бизнес бошлашга имкони ҳам йўқ эди. Хуллас, у роман ёза бошлади.

Мақсади юксак адабий дурдона яратиш эмас, шунчаки оммабоп асар ёзиш эди. Жон-жаҳди билан

ҲЕЧ ҚАЧОН КЕЧ ЭМАС

киришди. Шу даражадаки, ҳаётини фақат бир йилу битта хонадан иборат деб тасаввур қилди. Ҳар кун асари устида ишлади, ҳеч нимани ўйламади: на касалини, на тузалишни. Муддат тугатунича ишни якунлай олса бас.

У бўлажак романи ўқувчиларини худди мактабдаги ўзининг ўқувчиларидек тасаввур қилди. Асари қахрамонларини ҳам ўқувчи болалардек деб билди, улардан илҳомланди, бутун ўқитувчилик тажрибаси давомида болалар билан бўлган мулоқоти, таъсиллари

ва хулосаларидан фойдаланди.

Ўзига шартли равишда берилган йил ниҳоясига етар-етмас роман битди. Қахрамонимиз кўлэмзани наشريётга топшириб, шифокор қабулига борди. Шифокор эса рентген суратлари, қон тахлиллари ва бошқа текширувлар натижаларини қайта-қайта кўриб, кўзларига ишонмади — саратон чекинган ва бемор соғая бошлаганди.

ҲЕЧ ҚАЧОН КЕЧ ЭМАС

Ўша ўқитувчи — ҳозирда жаҳонга машҳур ёзувчи Энтони Бёрджесс эди, унинг "Ҳитлернинг аперсони" романи аҳақий бестселлер бўлди. Асар асосида кейинчалик Стэнли Кубрик суратга олган фильм катта шов-шув ва жанжалларга сабаб бўлди, ҳатто бир муддат тақиқлаб ҳам қўйилди (бу энди бошқа тарих).

Бёрджесс ўша романдан кейин яна 50 дан ортиқ китоб ёзди. Бу ҳам камдек мусиқа ёза бошлади: 175 та мусиқа асари яратди! Ҳатто симфоник оркестр ҳам Бёрджессга мусиқа буюртма қилди...

Ёзувчи мудҳиш ташхисдан кейин яна

Ватан учун яшайлик!

▼ Маърифий кеча

Чирчиқ шахри-да жойлашган ҳарбий қисмлардан бирида “Ватан учун яшайлик!” шiori ости-да маънавий-маърифий кеча бўлиб ўтди.



“Ватан учун, миллат учун, халқ учун!” гоёсини ўзида мужассам этган тадбирда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзолари, Республика маърифат тарғиботчилари кенгаши вакиллари, Нодавлат таълим муассасалари ассоциацияси раҳбарияти, Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши вакиллари, фаоллар, бокс бўйича халқаро мусобақалар ғолиблари ҳамда мuddатли ҳарбий хиз-

матчилар иштирок этишди. Шунингдек, ёш авлод қалбида маърифат ва маънавиятга бўлган меҳрни уйғотиш, уларни миллий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди. Шу кун тажрибали психологлар томонидан ҳарбий хизматчилар билан руҳий ҳолатни мустаҳкамлашга қаратилган амалий машғулотлар ҳам ўтказилди. Бу тре-

нингларда ҳарбийлар ўзаро ишонч, жамоавий мувофиқлик, стрессни бошқариш ва қарор қабул қилишдаги психологик механизмлар билан танишишди.

Тадбирнинг бадиий қисмида Ёшлар иттифоқи фаоллари томонидан жаҳидчилик ҳаракатининг забардаст вакили Абдулҳамид Чўлпон ҳаётига бағишлаб тайёрланган сахна кўриниши томошабинларда катта таассурот қолдирди.

Маърифий кеча якунида Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Обиддин Маҳмудовнинг “Фарзанднома” бадиий-публицистик асари ҳарбий қисм кутубхонасига топширилди.

Ўз мухбиримиз

Сўнгги йилларда давлатимиз томонидан спорт соҳасини ривожлантиришга қаратилган кенг қўламли ислохотлар туфайли юксак натижалар қўлга киритилмоқда. Биргина вилоятимизда қурилишига 212 миллиард сўмдан зиёд маблаг йўналтирилган 15 та спорт объекти барпо этилди. Ушбу иншоотлар замонавий талабларга тўлиқ жавоб берадиган ҳолда жиҳозланди.

Маҳаллаларда болаларни соғлом турмуш тарзига жалб этиш мақсадида 150 дан зиёд спорт мажмуалари фаолияти йўлга қўйилди. Шунингдек, ҳудудларда спорт мактаблари ва федерация филиаллари самарали иш юритмоқда. Ҳозирги кунда спорт йўналишидаги таълим муассасаларида 46 мингдан ортиқ ёшлар мунтазам шугулланишмоқда.

Бу сайъ-ҳаракатлар натижасида иқтидорли спортчилар сафи йил сайин ортиб, улар нафақат республика, балки халқаро мусобақаларда ҳам катта ютуқларни қўлга киритишмоқда.

Хабарингиз бор, 2024 йил Парижда ўтказилган Олимпиада ўйинларида спортчиларимиз дунё бўйича 13-ўринни эгаллаб, тарихий натижани кайд этишди. Бу ютуқда терма жамоамиз сафидаги вилоятимиз вакилларининг ҳам ҳиссаси бор.

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

ОЛИМПИА ЧЎҚҚИЛАРИ САРИ



си бор. Айниқса, Акбар Жўраев, Светлана Осипова каби спортчиларимизнинг натижалари бизни қувонтирди.

Шу ўринда кенг қўламлида ўтказилаётган “Янги Ўзбекистон олимпия чўққилари” мусобақалари ҳам янги истеъдодларни кашф этишга хизмат қилиши аниқ.

Маълумот учун, мусобақалар белгиланган режага кўра, 18 августгача (таэквондо, спорт кураши, бокс, енгил атлетика, бадиий гимнастика, стол тенниси, дзюдо, баскетбол бўйича) Нурафшон, Чирчиқ шаҳарлари ҳамда Юқори Чирчиқ ва

Тошкент туманларида ўтказилади. Беллашуларда минтақалардан сараланган 1 минг 358 нафар, шунингдек, ихтисослаштирилган спорт мактабларидан 284 нафар спортчи иштирок этади. Энг юқори натижаларни кўрсатган спортчилар “Президент олимпиадаси”да вилоятимиз шарафини ҳимоя қилади.

Маросимда машҳур санъаткорлар ижросида янграган куй-қўшиқлар ёшларга кўтаринки кайфият улашди.

Нигора ЎРОЛОВА,
“Тошкент ҳақиқати” мухбири



TOSHKENT HAQIQATI
ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА

Muassis:

**TOSHKENT
VILOYATI
HOKIMLIGI**



“Toshkent haqiqati” va
“Tashkentskaya pravda”
gazetalari tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV
(tahrir hay'ati raisi)

Abdusamad NOSIROV

Ummat MIRZAQULOV

Hotamjon SAYDAHMEDOV

G'afurjon MUHAMEDOV

Sayyora FAYZIYEVA

Tohir ARIPOV

Mahmud TOIR

Azamot MIRZAYEV

Uskenboy ATEMOV

Abdulla XURSANOV

Shahboz NIZOMIDDINOV

Kumush EGAMBERDIYEVA

Olimjon BEGALIYEV

Behzod QOBULOV

Sergey MUTIN

Bosh muharrir:

G'ayrat SHERALIYEV

Qabulxona:
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:

(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthaqiqati@umail.uz

Mas'ul kotib:

Alloma AZIZOVA

Navbatchi:

Zikrilla MUHAMMAD

Ekspeditor:

Behruz NURBOBOYEV

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 20.30.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-835.

2 743 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A–2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011–yil 12–yanvarda
03-001 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Manzil:
111500, Nurafshon shahri,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90.
Toshkent shahridagi
ofisimiz: Bektemir tumani,
Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati»
tahririyati kompyuter markazida
terildi va Tohir Mahmudxo'jayev
tomonidan sahifalandi.

Haftaning
chorshanba va shanba
kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida bosildi.
Korxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6



Таркент узумзорлари - дунё нигоҳида

қайта ишловчи корхоналар ва чакана савдо субъектларини бир жойга жамлаб, ўзаро алоқалар ва шартномалар тузиш имкониятини яратди. Маҳаллий ва хорижий инвесторлар учун имкониятлар очилади. Маҳаллий маҳсулотлар савдоси орқали қўшимча даромад келтирилади.

Хуллас, Паркентда узум сайлини ташкил этиш – бу узумчилар, маҳаллий туризмни, халқ анъаналарини ва иқтисодий салоҳият раванқини уйғунлаштирувчи муҳим платформа бўлиб хизмат қилади.

“Заркент – саховат” фермер хўжалиги раиси Норхол ҳожи Деҳқонов билан ҳам шу ерда танишдик. Хўш, у қандай инсон? Қўл остида ишлайдиганлардан сўрасангиз, нима дейди? Зўр дейди-да! Бизнинг таркент томонларда Норхол ҳожи-дек заҳматкаш одамни тополмай-сиз, дейиши аниқ. Паркентнинг катталаридан сўрасангиз-чи? “Ҳақиқий фермер. Камтар, лекин ғурури баланд инсон-да!” деган жавобни олди.

Норхол Деҳқоновнинг таржimaiи ҳоли ҳам кўпчилик тенгдошлари-нигиға ўхшаб кетади. 1957 йили

У саккиз сотихли томорқасини шуд-горлаб, бола-чақа учун егуликлар эккандида, каттароқ ерлари бўлишини, фарзандлари учун боғлар яратишни кўп орзу қилар эди. Аммо, умри калта экан, бундай кунлар насиб этмади.

Норхол ака эса ёшлик даврларини ҳайдовчилик билан ўтказди. Мустақиллик йилларида ҳам қишлоқдошлари қатори умргузаронлик қилиб юраверилиш мумкин эди. Аммо... дўппини қўлга олиб мулоҳаза қилиб, атрофига бундай разм солса, ишбилармон ва тадбиркор одамларнинг кунни туғибди. У оила аъзолари билан маслаҳатлашиб, ер эгаси бўлишга қарор қилди.

– 2003 йили “Заркент – саховат” фермер хўжалигини ташкил этдим, – дейди Норхол ака. – 15 гектар майдоннинг 11 гектарига тоқзор, қолганига бошқа мевали қўчатлардан иборат катта боғ қилдик. Шукри, оила аъзоларим, ҳамқишлоқларим билан биргаликда қилаётган ҳалол меҳнатларимиз ўз маҳсулини беряпти. Маҳаллага битта тўйхона қурдик, қизларимиз ва келинларимиз учун тикув цехи очдик. Қўли

ётганлар оддий деҳқон... Уларнинг ҳам косаси оқаряптими?”

– Менинг насабим ҳам, ўзим ҳам деҳқонман, – деди у киши бунга жавобан. – Улар ҳам деҳқон. Энди ўзингиз ўйлаб кўринг, болаларининг қорни тўқ, усти бут бўлмаса, уйда уни, чойи, мойи бўлмаса, иссиқ жоннинг иситмаси бор, пул тополмай уйда ўтирса... ким ишлайди? Қандай ишлатасиз уларни? Одам сидқидилдан меҳнат қилмаса, барака бўлмайди. Алдаб, қўрқитиб ишлатадиган даврлар ўтди. Одамларимиз ойма-ой ҳақини олиб тураришдики, боғларимиз жаннатдек яшнаб ётибди. Ҳаммамиз Президентимиздан миннатдоримиз. Яхши ишляпмиз, яхши яшяпмиз.

Тўйлар олдида, байрамлар арафасида Ўзбекистонимизнинг барча ҳудудларида ободонлаштириш ишларини ташкил этиш яхши анъанага айланган. Паркент туманида ҳам мустақиллик байрами арафасида ўтказилаётган хайрия ҳашарлари давомида муайян режалар асосида бир қатор юмушлар адо этиляпти.

Заркент қишлоғида узум сайлини